

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.13.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**RAXMONOVA SARDORA MUMINJONOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TADBIRKORLIK SOHASIGA OID  
LEKSIK BIRLIKLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2026**

UO‘K: 811.111'372:334.711  
+811.512.133'372:334.711

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philology**

**Raxmonova Sardora Muminjonovna**

Ingliz va o‘zbek tillarida tadbirkorlik sohasiga oid leksik birliklarning struktur-  
semantik tahlili ..... 3

**Рахмонова Сардора Муминжоновна**

Структурно-семантический анализ лексических единиц относящихся к сфере  
предпринимательства в английском и узбекском  
языках .....25

**Rakhmonova Sardora Muminjonovna**

Structural and semantic analysis of lexical units related to the sphere of  
entrepreneurship in English and Uzbek languages ..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....55

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.Fil.13.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**RAXMONOVA SARDORA MUMINJONOVNA**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TADBIRKORLIK SOHASIGA OID  
LEKSIK BIRLIKLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TERMIZ – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1837 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tues.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Axmedov Oybek Saporbayevich  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Ahmedova Mehrinigor Bahodirovna  
filologiya fanlari doktori, professor

Eshmuminov Asqar Allamurodovich  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Fil.13.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 20 » iyun soat 9<sup>so</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Termiz shahri, "Yulduz" mahallasi, "Ibn Sino" ko'chasi 38-B uy Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz iqtisodiyot va servis universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin Manzil: 190111, Termiz shahri, Termiz shahri, "Yulduz" mahallasi, "Ibn Sino" ko'chasi 38-B uy Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 10 » iyun kuni tarqatildi.

(2026-yil « 20 » iyun dagi 5 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



**O.P.Uralova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Z.R.Narmuratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

**N.X.Mamataliyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida kengayib borayotgan global iqtisodiy aloqalar asnosida turli tillardagi tadbirkorlik terminlarini qiyosiy o'rganish zaruriyatga aylanmoqda. Vaholanki, biznes sohasidagi leksik birliklarning tuzilishi va ma'nosi bir talay omillarga bog'liq bo'lib, ularni tadqiq etish madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirishda har tomonlama muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ingliz va o'zbek tillarida tadbirkorlik sohasiga oid leksik birliklarning struktur-semantik tahlili nafaqat tillararo tafovutlarni aniqlashda, balki biznes kommunikatsiyaning samaradorligini oshirishda ham sezilarli darajada o'z dolzarbligini oshirmoqda. Zamonaviy tadbirkorlik muhitida, o'z navbatida, ingliz va o'zbek tillari terminologiyasini uyg'unlashtirish amalda huquqiy hamda iqtisodiy hujjatlarning to'g'ri tarjima qilinishini ta'minlashda ham muhim strategik ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Dunyo tilshunosligining o'rganilishi zarur hisoblangan jihatlari sifatida iqtisodiyotning bir bo'lagi sanalgan, o'zining muhim tadqiqot obyekti va predmetiga ega bo'lgan tadbirkorlik sohasi ham kishilar ongidagi tadbirkorlikka xos tushunchalar, bilimlar va ayni sohada ishlatiladigan lug'aviy qatlam sifatida tilda o'z o'rnini va nufuzini topib bormoqda. Ayniqsa, soha terminlarining struktur-semantik tuzilishga ko'ra turlarini aniqlash, funksional-uslubiy xususiyatlariga doir masalalarning har tomonlama ko'rib chiqilishi zamon talabiga aylanmoqda. Bozor munosabatlarini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etuvchi tadbirkorlik leksikasiga alohida e'tibor qaratilib, ularning tarixiy ildizlari, ma'no-mazmun munosabatlari doirasini tadqiq etish dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbek tilshunosligida bugungi kunda iqtisodiyot doirasida tadbirkorlikka oid umumiy masalalarni o'rganish, u yoki bu tildagi so'z va iboralarni asl holda saqlab qolish, tildan to'g'ri foydalanish yo'llarini izlash, tadbirkorlikka oid leksik birliklarni tartibga solish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, mamlakatimizning har sohada rivojlanayotganligi tilshunoslikning ichki va tashqi imkoniyatlari asosida boyishiga sabab bo'lmoqda. Albatta, kirib kelayotgan yangi soha o'z termin va nomlari bilan kirib keldi, ammo har qanday yangilikning nomi bo'layotgan yangi terminlarni o'z holicha qabul qilish va foydalanishda til me'yorlariga amal qilish zarur. Zotan, "har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"<sup>1</sup> ekan, ona tilimizga yangi leksik birliklar o'zlashayotganda o'zbek tili ichki imkoniyatlari asosida terminlarni qabul qilishimiz zarur. Bu esa chet tillardan kirib kelayotgan har qanday sohalarning terminlarini o'zbek tilidagi muqobilini iste'mol uchun tavsiya etish, ularni o'zbek tili ichki imkoniyatlar asosida o'zlashtirish va tartibga solishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // President.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/2954>.

to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi VMQ-75-son "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida", 2012-yil 1-fevraldagi VMQ-25-son "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlar sifatida Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarlari hamda Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa mutafakkirlarning asarlarini<sup>2</sup> keltirish mumkin. Bu asarlarda davlat boshqaruvi, savdoga oid so'zlarning qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin.

Terminologik masalalar D.S. Lotte, L.A. Kapanadze, Y.A. Zemskaya, D.N. Shmelov, A.A. Reformatskiy, V.V. Vinogradov, A.S. Gerd, V.M. Leychik, S.D.Shellov, R.A. Budagov, G.O.Vinokur, L.Y. Buyanova, K. Kageura, D. Sageder, M.S. Muñoz, S.A. Azizov, G'.Abdurahmonov, I. Yuldashev, P.Nishonov, X.D. Paluanova, D.X. Kadirbekova<sup>3</sup> va boshqa olimlarning ishlarida tadqiq qilingan.

---

<sup>2</sup> Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулук). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 304 б.; Темур тузуклари / Форс тилидан А.Соғуний ва Х.Кароматов таржимаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 144 б.; Кошғарий М. Девони луғотит-турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. 1 жилд. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси, 1960. – 180-190 б.; Al-Khwarizmi, M. ibn Musa. Al-Kitab al-Mukhtasar fi Hisab al-Jabr wa-l-Muqabala. Trans. F. Rosen. London, 1831. pp. 71–95.; Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. Нодир ва доно фикрлар. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2004. – 160 б.; Беруний А. Р. Минералогия. — Тошкент: Фан, 1968. – 45–78-б.; Ҳожиб Ю.Х. Қутадғу билиг. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодиёт уйи, 2007. – 200 б.; Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: «Ўқитувчи» нашриёти, 2018. – 528 б.

<sup>3</sup> Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. – Москва: Издательство АН СССР, 1961. – 210 с.; Кapanadze Л.А. О понятиях «термин» и «терминология» // Е.А. Земская, Д.Н. Шмелев (Ред.), Развитие лексики современного русского языка: сборник статей. – Москва: Наука, 1965. – С. 75–85; Реформатский А.А. Как работать над терминологией: основы и методы. – Москва: Наука, 1968. – 76 с.; Виноградов В.В. Основные этапы истории русского языка // Виноградов В.В.

Iqtisodiyot, g'aznachilik, bank-moliya, soliq va bojxona sohalariga oid terminologiyaning leksik-semantik, tarixiy-etimologik, funksional-strukturaviy jihatlari, qiyosiy-statistik masalalari N.V.Buyanov, V.V.Kasyanov, L.G. Aksyutenkova, L.N. Mitireva, O.V. Dovbish, Y.N. Trifonova, A.A. Proshina, O.L.Shaxbazyan, T.V. Shetle, H.Dadaboyev, J.Do'stmuhammadov, O.O. Olimjonov, T.S. Malikov, T.M. Qoraliyev, Q.M. Musayev, A.H. Erdonayev, M.Sh. Qudratov, Ch.S. Abdullayeva, O.S. Axmedov, Sh.N. Abdullayeva <sup>4</sup> va boshqa tilshunoslar ishlarida o'z aksini topgan.

---

(Ред.), Избранные труды: История русского литературного языка. – Москва: Наука, 1978. – С. 10–64; Герд А.С. Ещё раз о значении термина // Лингвистические аспекты терминологии: сб. науч. тр. – Воронеж: Издательство Воронежского университета, 1980. – С. 3–9; Лейчик В.М., Шеллов С.Д. Лингвистические проблемы терминологии и научно-технический перевод / Сер. «Теория и практика научно-технического перевода»: обзор информации. Вып. 18. Ч. II. – Москва: Всесоюзный центр переводов научно-технической информации и документации, 1990. – 80 с.; Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – Москва: Добросвет, 2003. – 544 с.; Винокур Г.О. История русского литературного языка. – Москва: Либроком, 2010. – 184 с.; Буянова Л.Ю. Когнитивно-семиотическая деривация как механизм формирования и эволюции современной финансово-экономической терминосферы // Вестник Челябинского государственного университета. – 2013. – № 31(322). – С. 19–22; Kageura K. The dynamics of terminology: A descriptive theory of term formation and terminological growth. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2002. – 322 p.; Sageder D. Terminology today: a science, an art or a practice?: Some aspects on terminology and its development // Brno Studies in English. – 2010. – № 36(1). – pp. 123–134; Muñoz M.S. Terminology. Unit I. Introduction to terminology // Open Courseware. – University of Murcia, 2010; Азизов С.А. Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 160 с.; Абдурахмонов Ф. Терминология муаммолари // Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари: Биринчи Республика терминология конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1986. – 13 б.; Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилиги терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиши: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 288 б.; Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологияси тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 26 б.; Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион-семантик принциплари. Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2016. – 88 б.; Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б.

<sup>4</sup> Буянов Н.В. Функциональность терминов и понятий терминосферы “налоги и Налоговое право”: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2001. – 20 с.; Касьянов В.В. Сопоставительный анализ современной терминологии финансовой деятельности в английском и русском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2001. – 29 с.; Аксютенкова Л.Г. Деривация как фактор эволюции терминосистемы: на материале терминологии “Риночная экономика”: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2002. – 25 с.; Митирева Л.Н. Психолингвистический анализ неологизмов, заимствованных из английского языка (на материале экономических терминов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2002. – 24 с.; Довбыш О.В. Английская финансовая терминология и проблемы ее перевода на русский язык (на материале годовых финансовых отчетов зарубежных компаний): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2003. – 22 с.; Трифонова Е.Н. Полисемия банковских терминов в английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Омск, 2004. – 28 с.; Прошина А.А. Моделирование двуязычного словаря-тезауруса по экономике: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2008. – 24 с.; Шахбазян О.Л. Суффиксальная терминодеривация в языке экономики: когнитивный аспект: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2008. – 21 с.; Шетле Т.В. Англоязычная терминология банковского дела в языковой системе и речевой практике: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2010. – 26 с.; Дадабаев Х. Общественно – политическая и социально – экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв.: Дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 356 с.; Дўстмухаммадов Ж. English–Uzbek–Russian Dictionary of Economical Terms. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 320 б.; Олимжонов О.О., Маликов Т.С., Қоралиев Т.М. Заонавий молия-банк атама ва ибораларининг инглизча-русча-ўзбекча эквивалент луғати. – Тошкент: «Шарк» нашриёт-матбаа концерни Бош тахририяти, 1996. – 144 б.; Мусаев Қ.М., Эрдонаев А.Х., Қудратов М.Ш. Economics – Finance – Banking – Commerce (Иқтисодиёт – Молия – Банк – Тижорат): Беш жилдлик инглизча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – 529 б.; Абдуллаева Ч.С. Русско-узбекские параллели в современной экономической терминологии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000. – 22 с.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ ва бојхона терминларининг лингвистик тахлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 25 б.; Абдуллаева Ш.Н. Ғазначилик соҳасида қўлланиладиган молиявийиқтисодий терминларнинг чоғиштирма тадқиқи (инглиз, ўзбек, рус тиллари мисолида): Филол. фан. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 26 б.

Bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda moliya-iqtisod sohasiga oid terminologiyaning leksik-semantik va struktur jihatlari muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, ingliz va o'zbek tillarida tadbirkorlik sohasiga oid leksik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari chog'ishtirma nuqtayi nazardan yetarlicha o'rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №I-204-4-5 "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar" ilmiy loyihasining "Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o'zbek tillaridagi tadbirkorlik sohasiga oid leksik birliklarni struktur-semantik jihatidan o'rganish, ularning qiyosiy xususiyatlarini aniqlash va lingvistik xulosalar chiqarishdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz va o'zbek tillarida tadbirkorlik sohasi leksik birliklarining qiyosiy struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash, har ikki til materialida mavjud umumiylik va farqlarning lingvistik asoslarini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularni ilmiy dalillar bilan asoslash;

tadbirkorlikka oid leksik birliklar va neologizmlarning morfologik tuzilishi hamda semantik rivojlanish jarayonlarini o'rganish, ularning semantik kengayishi, polisemiya va antonimiya hodisalarini maxsus lingvistik mezonlar asosida tizimlashtirish va nazariy-metodologik tamoyillarini ishlab chiqish;

ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan tadbirkorlikka oid leksik birliklarning o'zlashtirish jarayonini tahlil qilish, ularning morfologik va semantik moslashuv xususiyatlarini aniqlash hamda o'zbek tilining leksik tizimidagi o'rni va madaniy-pragmatik funksiyalarini belgilash;

ingliz va o'zbek tillarida tadbirkorlik leksikasini terminologik qatlam, neologizmlar, frazeologizmlar va metaforik birliklar doirasida qiyosiy tasniflash, ularning lingvopragmatik xususiyatlari hamda ilmiy va marketing nutqidagi funksional-semantik imkoniyatlarini kompleks tarzda tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyeksi** ingliz va o'zbek tillarida tadbirkorlik sohasida qo'llanadigan leksik birliklar, neologizmlar, frazeologik birliklar majmuasi hamda ularning til tizimidagi qo'llanish jarayonidir.

**Tadqiqotning predmeti** ingliz va o'zbek tillarida tadbirkorlik sohasiga oid leksik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari, ularning shakllanishi, ma'no rivoji, uslubiy qo'llanishi va lingvopragmatik imkoniyatlaridan iboratdir.

**Tadqiqotning usullari** sifatida tavsifiy, qiyosiy-tipologik (chog'ishtirma), morfologik va leksik tahlil, etimologik va kontrastiv tahlil, stilistik va funksional tahlil, komponent tahlil hamda semantik maydon tahlilidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida tadbirkorlik sohasi leksik birliklarining dastlabki qiyosiy struktur-semantik tahlili amalga oshirilib, har ikki til materialida mavjud umumiylik va farqlarning lingvistik asoslari nazariy jihatdan dalillab berildi;

tadbirkorlikka oid leksik birliklar va neologizmlarning morfologik tuzilishi,

semantik kengayish jarayonlari, polisemiya hamda antonimiya hodisalari maxsus lingvistik mezonlar asosida tizimlashtirilib, ularning nazariy-metodologik tamoyillari ishlab chiqildi;

ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan tadbirkorlik leksik birliklarining o'zlashtirish jarayoni morfologik va semantik moslashuv xususiyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ularning o'zbek tilidagi leksik tizimdagi o'rni hamda madaniy-pragmatik funksional xususiyatlari ilmiy asosda belgilandi;

ingliz va o'zbek tillarida tadbirkorlik leksikasining terminologik qatlam, neologizmlar, frazeologizmlar va metaforik birliklar doirasida qiyosiy tasnifi ishlab chiqilib, ularning lingvopragmatik xususiyatlari hamda ilmiy va marketing nutqidagi funksional-semantik imkoniyatlari keng qamrovli tarzda tizimlashtirildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqotda olingan ilmiy natijalar lingvistika, tarjimashunoslik, leksikologiya va stilistika bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda qo'llanishi mumkin bo'lib, ingliz va o'zbek tadbirkorlik leksikasining qiyosiy tahlilidan olingan xulosalar o'quv qo'llanmalari, darsliklar va terminologik lug'atlar yaratishda samarali xizmat qiladi;

tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan nazariy asoslar tarjima amaliyotida tadbirkorlik leksik birliklari va neologizmlarning adekvat tarjimasini ta'minlashda amaliy yordam berishi bilan birga, stilistik va semantik xususiyatlarga oid tahliliy natijalar maxsus kurslar, seminar va amaliy mashg'ulotlarda o'quv-uslubiy material sifatida qo'llanishi mumkin;

tadqiqotdan olingan xulosalar biznes-kommunikatsiya, marketing va menejment sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun ham foydali bo'lib, atamalarning to'g'ri ishlatilishi va ularning madaniy-pragmatik moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi;

ishlab chiqilgan tasnif va lingvistik model o'zbek tilining terminologik bazasini boyitishga imkon yaratadi hamda tadbirkorlik sohasiga oid yangi so'z va leksik birliklarning ilmiy asosda o'zlashtirilishiga hissa qo'shadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olingan ilmiy natijalarning aniqligi va ishonchliligi, ishda qo'llanilgan yondashuvlar va usullar, faktik-analitik til materiallari hajmining nufuzliligi, erishilgan yangi xulosalarning dissertatsiyaning nazariy jihatiga muvofiqligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar, tegishli tashkilotlar tavsiyasiga ko'ra chop etilgan poligrafik va elektron nashr materiallaridan olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalari tadbirkorlik sohasiga oid leksik birliklarning tildagi mavqeyini ko'rsatib beradi, qiyosiy terminologiya, leksikologiya, tarjimashunoslik sohaslarining tadqiqot ko'lamini yanada boyitadi. Dissertatsiyada keltirilgan fikr va qarashlar, terminlar tarjimasini va leksik birliklar bo'yicha keltirilgan tavsiyalar tilshunoslikning boshqa tarkibiy terminologik tizimlarini tadqiq etishda ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya materiallari va xulosalari oliy o'quv yurtlarining filologiya, tarjimonlik fakultetlarida "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Leksikologiya" kabi fanlarni, "Yozma tarjima", "Og'zaki tarjima" kurslarini o'qitishda, lug'atlar,

darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratishda hamda turli metodik tavsiyanomalar tuzishda, tegishli soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida bakalavr va magistrantlar uchun o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o'zbek tillarida tadbirkorlik sohasiga oid leksik birliklarining struktur-semantik tahlili yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o'zbek tillarida soha leksik birliklarining ilmiy jihatdan o'rganilishi kishilarning mazkur sohaga doir ijtimoiy ongi va dunyoqarashini oshirishga muhim turtki bo'lishidan, lingvistik omillarning mohiyatiga asoslangan leksik birliklarning struktur-funksional, leksik-semantik munosabatlari lingvistik vositalar bilan muvofiqlashtirilganligidan, keng qamrovda ochib berilgan ingliz va o'zbek tillarida tadbirkorlik sohasiga oid leksik birliklarning derivatsion tamoyillari, affiksial, morfemik-morfologik, sintaktik, struktur-semantik tahlillaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 561624-ERR-1-2015-UK EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida dan foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 12-yanvardagi № 77/02-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur tahlil natijalaridan loyiha doirasidagi dastur va qo'llanmalarni takomillashtirish jarayonida hamda yaratishda foydalanilgan;

chog'ishtirilayotgan tillarning leksik-semantik, struktur-semantik, sintaktik va morfologik tizimini chuqur o'rganish, ularning boy tajribasini ijodiy ravishda o'zlashtirish tilshunoslik fani oldiga o'zbek va chet tillar tadbirkorlik sohasi leksik birliklarini qiyosiy-tipologik aspektida o'rganishdek o'ta muhim bo'lgan masala bo'lib, dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan iqtisodiy sohalardagi hamkorlik aloqalarni mustahkam o'rnatish va ularni rivojlantirishga qaratilgan tahlillaridan Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturining Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK -TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" loyihasi doirasidan foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 12-yanvardagi № 76/02-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur tahlil natijalaridan institutning o'quv jarayoni va xalqaro loyihalarini samarali amalga oshirishda foydalanilgan;

tadbirkorlik sohasi leksik birliklarini xalq og'zaki nutqida ko'chma hamda to'g'ri ma'noda qo'llanilishi, ushbu leksik birliklarning odamlar hayotida katta ahamiyat kasb etishi, iqtisodiyot va tadbirkorlik sohasida keng qo'llaniladigan terminlar, leksik birliklar, mazkur sohadagi frazeologik birliklarning turlari, yangi o'zlashma so'zlar, neologizmlar va okkazonalizmlar haqidagi xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari", "Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar rivoji" dasturlarining ssenariysini tayyorlashda (2023-2024-yillarda) foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "O'zbekiston Teleradiokanali" Davlat Muassasasining 2024-yil 15-yanvardagi № 04.36.69-son ma'lumotnomasi).

Natijada mazkur tahlil natijalaridan dasturlar ssenariysini boyitishda va ulardagi materiallarning mazmun-mohiyatini oshirishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika, Scopus ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda 2 ta va 7 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, usullari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tilshunoslikda tadbirkorlikka oid leksik birliklar o'rganilishining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida jahon va o'zbek tilshunosligida tadbirkorlik sohasi leksikasi tizimiga oid mavjud nazariy asoslar va yondashuvlar, fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida maxsus soha leksikasining o'rni va ahamiyati, chog'ishtirilayotgan tillarda termin va leksik birlik haqida umumiy tushuncha, leksik birliklarning turlari va ularning yasalishi, leksik birliklarning tildagi vazifalari, tadbirkorlikka oid leksik birliklar shakllanishi va rivojlanishi haqidagi ilmiy-nazariy mulohazalar yoritilgan.

So'nggi yillarda tilshunoslik sohasining taraqqiy etishi mutaxassislar tomonidan bir qancha omillar bilan uzviy bog'lanadi. Ilm-fan va texnika, ishlab chiqarish rivojlanishining tez sur'atlar bilan borishi, jahon mamlakatlarida ro'y berayotgan taraqqiyotning globallashuv va integrallashuv jarayonlari kurrayi zaminimizdagi mavjud tillarning o'zaro intensiv ta'sirida ekanligi tillar ko'lamini kengaytiradi va uning lug'at sathini muttasil o'sishiga zamin yaratadi.

XX asrdan boshlab terminlar tilshunoslar uchun alohida o'rganish obyektiga aylandi. Terminologiya sohasining ilmiy va nazariy masalalarini ijobiy o'rganishning taraqqiyoti ushbu soha birliklarini paydo bo'lishi va ularning qo'llanish qonuniyatlarini shakllantirishga qaratilgan yangi ilmiy “terminshunoslik” fanining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi<sup>5</sup>. Shu bois, tilshunoslik sohalari ichida

---

<sup>5</sup> Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. – Москва: Высшая школа, 1972. – 370 с.

terminologiya sohasini eng yangi yo‘nalishlardan biri deb qayd etish maqsadga muvofiq, bundan tashqari, uning barcha tillar kesimida o‘rganilishiga bog‘liq ilmiy-nazariy ishlar o‘tgan asrning ikkinchi yarmida ancha faollashdi.

Terminologiya – ma‘lum bilim yoki ishlab chiqarish sohasidagi termin to‘plami, shuningdek, terminning shakllanishi, tarkibi va faoliyati haqidagi ta‘limot. Terminologiya umumiy nazariyasining predmeti: maxsus so‘zlarni yaratish va ulardan foydalanish, ular yordamida insoniyat tomonidan to‘plangan bilimlar to‘planib, kelajak avlodga meros qilinadi; ma‘lum va mavjud terminologik sathlarni rivojlantirish; sohaga doir yangi birlik va ularning terminologik tizimlarini yaratishning maqbul usullarini qidirishni ko‘zda tutadi<sup>6</sup>.

Shu o‘rinda, tadbirkorlik atamasi va uning qo‘llanilishi haqidagi ta‘riflarga nazar salsak. “Tadbirkorlik” atamasi 1980-yillardan boshlab katta mashhurlikka erishdi<sup>7</sup>. “Tadbirkor” va “tadbirkorlik faoliyati” atamalarining keng qo‘llanilishiga qaramay, ular yagona, umume’tirof etilgan ta‘rifga ega emas. Ba’zi olimlar turli xil talqinlarni taklif qilishadi, bu esa ushbu tushunchalarni quyidagicha tushunishga olib keladi. Ularning ma‘nosiga doir bahs-munozaralar hanuzgacha davom etmoqda va ko‘plab olimlar bu masalada yagona, umumiy tan olingan ta‘rifning mavjud emasligini e’tirof etishmoqda<sup>8</sup>.

Terminologiyaning L.V. Ivina tomonidan taqdim etilgan ta‘rifi biz uchun eng maqbuli hisoblanadi: “Terminologiya – muayyan faoliyat sohasining maxsus nominatsiyasining, uning izomorf tizimi tushunchasi va kommunikativ talablariga xizmat qiladigan birliklar to‘plami”<sup>9</sup>. Biz ham terminologiya borasida L.V.Ivinaning ushbu fikriga qo‘shilamiz. Bunga sabab shuki, sohaviy terminologiyani tashkil qiladigan terminlar tizimi ko‘p hollarda faqat shu sohagagina tegishli bo‘ladi.

XVIII va XIX asrlarda tadbirkorlik tushunchasi asosan iqtisodiy faoliyat va foyda orttirishga qaratilgan harakat sifatida talqin qilingan. Bu davrda fransuz iqtisodchisi R.Kantillon va shotlandiyalik faylasuf A.Smit kabi mutafakkirlar tadbirkorni bozor xavf-xatarlarini o‘z zimmasiga olgan shaxs sifatida tasvirlaganlar. Ayniqsa, A.Smitning “Millat boyligi” nomli asarida tadbirkor mehnat bozoridagi tartibga solinmagan kuch sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa ularning iqtisodiyotdagi rolini aniqlashga xizmat qilgan. Bu davrda “tadbirkor” atamasi asosan savdogar, sanoatchi yoki ishlab chiqaruvchi shaxslar bilan bog‘liq bo‘lgan. A.Smit o‘z asarlarida tadbirkor so‘zini ishlatmagan. Buning o‘rniga u “ish beruvchi”, “usta”, “savdogar” va “Undertaker” so‘zlarini ishlatgan. U hech qachon korxonani

<sup>6</sup> Саримсоков Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг чоғиштирма тадқиқи: Филол. фан. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2020. – 171 б.

<sup>7</sup> Majid I.A., Koe W.L. Sustainable entrepreneurship (SE): A revised model based on triple bottom line (TBL) // International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences. – 2012. – № 2(6). – pp. 293–310.

<sup>8</sup> Carsrud A.L., Brannback M.E. Entrepreneurship. – London: Greenwood Press, 2007. – pp. 29–49; Veciana J.M. Entrepreneurship as a scientific research programme // B.Cuervo, D.Ribeiro, S.Roig (Eds.), Entrepreneurship: Concepts, theory and perspective. – Berlin; Heidelberg: Springer, 2007. – pp. 23–71; Gartner W.B. “Who is an Entrepreneur?” Is the wrong question // American Journal of Small Business. – 1988. – № 12(4). – pp. 11–32.

<sup>9</sup> Ивина Л.В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминосистем (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования). – Москва: Акад. проект, 2003. – 301, [2] с.

boshqarish va tashkil etish uchun olinadigan daromad haqida soʻz yuritmagan<sup>10</sup>. R.Kantillon esa daromad manbalariga qarab uch turdagi odamlarni ajratdi: *yer egalari, ishchilar va tadbirkorlar*.

Tadbirkorlik sohasida leksik birliklar yangi tushunchalar va jarayonlarni ifodalashda, iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda, shuningdek, global biznes va moliya tizimlarining taʼsiri ostida oʻzgarishda katta ahamiyatga ega boʻlib, dastavval, ularning shakllanish jarayoniga eʼtibor qaratamiz:

“Temur tuzuklari”da ham zakot va boj masalasiga alohida urgʻu berilgan: “...kelib-ketayotgan savdogarlarning mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlar, shuningdek, mamlakatdagi chorva va yaylovlar nazoratini vazir zimmasiga topshirish lozim, u esa bu daromad manbalarini ishonch bilan saqlashi kerak”<sup>11</sup>, – deb qayd etilgan.

“Siyosatnoma” – Saljuqiylar davridagi mashhur vazir Nizomulmulk tomonidan yozilgan nasihatnoma boʻlib, unda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, adolat va jamiyat tartibi haqida fikrlar bayon qilinadi. Asarda *davlat, boshqaruv, iqtisodiyot, adolat, jamiyat, tartib, vazir* kabi soʻzlar tilga olinadi<sup>12</sup>. Bu soʻzlar asarning ijtimoiy-siyosiy mazmunini ochib beradi va Nizomulmulkning boshqaruv, adolat va taraqqiyot haqidagi qarashlarini ifodalaydi.

Al-Xorazmiy “Algebra va al-muqobala haqida kitob” nomli asarida matematika orqali iqtisodiy muammolarni yechishga yoʻl ochgan. Kitob iqtisodiy hisob-kitoblarning ilmiy asoslarini tashkil etadi. Muallif algebra yordamida mulk taqsimoti, qarz va foyda-zarar hisoblarini bajarish usullarini koʻrsatgan. Asarda meros, qarz va biznesdagi mulk masalalarini hal qilish uchun matematik formulalar taqdim etilgan, bu esa tadbirkorlik faoliyatida amaliy ahamiyatga ega.

Rimda ish haqi koʻpincha “*salarium*” deb nomlangan (bu soʻz bugungi “*salary*” – maosh soʻzining ildizi hisoblanadi). “*Salarium*” soʻzi “*sal*” (tuz) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, dastlabki davrlarda harbiylarga tuz berilishi bilan bogʻliq boʻlgan. Tuz qadimda qimmatbaho tovar boʻlgan. “*Salary*”, “*soldier*” (soldum – Rimdagi harbiy toʻlov), “*stipend*” kabi soʻzlar Rim davridan tilga oʻtgan. Bu soʻzlar orqali iqtisodiy munosabatlar tasvirlanadigan lugʻat boyib borgan. Rimdagi rasmiy hujjatlar va ish yuritish tili tadbirkorlik leksikasining rasmiy-terminologik bazasini shakllantirishga turtki boʻlgan.

Xristofor Kolumbning Amerikani kashf etishi bilan yangi savdo yoʻllari ochildi. Ispaniya, Portugaliya va keyinchalik Angliya, Fransiya va Gollandiya mustamlakalar tashkil qildi. Yangi mahsulotlar – kakao, tamaki, kartoshka, paxta kabi mahsulotlar Yevropaga olib kelindi. “*Import*”, “*eksport*”, “*koloniya*”, “*karavella*”, “*transatlantik savdo*” kabi leksik birliklar ommalashdi.

1694-yilda Angliya banki tashkil topdi. Bu hozirgi zamonaviy markaziy banklarning ajdodi hisoblanadi. Bu davrda “*chek*”, “*kredit*”, “*depozit*”, “*banknot*”, “*dividend*” kabi moliyaviy tushunchalar ommalasha boshladi. “*Reserve*”, “*central*

<sup>10</sup> Smith A. An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations / ed. with an introduction, notes, marginal summary and an enlarged index by Edwin Cannan. – London: Methuen & Co., 1904. – 2 vols. – 912 p.

<sup>11</sup> Temur tuzuklari / Форс тилидан А.Соғуний ва Х.Кароматов таржимаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 144 б.

<sup>12</sup> Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 304 б.

*bank*”, “*interest rate*”, “*liquidity*”, “*monetary policy*” kabi tushunchalar bank leksikasida paydo bo‘ldi. Tadbirkorlik leksikasiga yangi moliyaviy leksik birliklar kirib keldi, ularning aksariyati bugungi kungacha ishlatiladi.

Ta’kidlash lozimki, tadbirkorlik tushunchasi vaqt o‘tishi bilan iqtisodiyot, siyosat va tarix kabi turli sohalardagi mutafakkirlar ta’siri ostida rivojlanib keldi. Biroq ushbu leksik birlikka nisbatan hali ham yagona, umumiy qabul qilingan ta’rif mavjud emas. Buning sababi shundaki, tadbirkorlik tushunchasi doimiy ravishda o‘zgarib turadi va iqtisodiy fikrning o‘zi bilan birga rivojlanishda davom etmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek tillarida tadbirkorlikka oid leksik birliklarning lingvistik xususiyatlari**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda chog‘ishtirilayotgan ingliz va o‘zbek tillarida tadbirkor va tadbirkorlik haqida ta’riflar, tadbirkorlik subyektlarining strategik faoliyati sifatida tadbirkorlikning ilmiy va falsafiy asoslari, ingliz va o‘zbek tillarida tadbirkorlikka oid leksik birlarning struktur xususiyatlari, ingliz va o‘zbek tillarida tadbirkorlikka oid leksik birlarning semantik xususiyatlari va ularning vazifalari, ingliz va o‘zbek tillarida tadbirkorlikka oid leksik birlarning stilistik xususiyatlari, zamonaviy ingliz tilining umumiy qabul qilingan tadbirkorlik sohasi terminologiyasi – ro‘yxatlar va lug‘atlar haqida ma’lumot berib o‘tiladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi tadbirkorlik leksikasi iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga oid bo‘lib, har bir tilning strukturaviy, madaniy va iqtisodiy xususiyatlariga mos tarzda shakllanadi.

O‘zbek tilida tadbirkorlik atamalari ko‘pincha qo‘shimchalar orqali hosil qilinadi. Masalan, “tadbirkorlik” so‘zi:

Tadbir – “*reja, chora*” (arabcha ildiz), -kor – “*shug‘ullanuvchi kishi*”, -lik – “*holat yoki faoliyat*” ma’nolarini beradi.

Shuningdek, “savdogar” – “savdo” + “-gar” (egalik bildiruvchi) kabi misollar mavjud. Yaqin yillarda ingliz tilidan “investitsiya”, “marketing”, “startup” kabi so‘zlar o‘zlashgan va asosan inglizcha shaklda ishlatilmoqda.

Ingliz tilida esa ko‘plab tadbirkorlik atamalari so‘z birikmalari orqali hosil bo‘ladi: *small business, venture capital, market research, business plan* kabi. Bu birikmalar sintaktik jihatdan yaxlit semantik birliklar sifatida qaraladi.

Ingliz iqtisodiy terminlari ko‘p ma’nolilikka ega. Masalan, *business* – savdo, xizmat, sanoat faoliyati; *enterprise* – yirik korxonalar yoki loyiha. O‘zbek tilida esa bunday terminlar ko‘pincha bitta asosiy ma’noda qo‘llanadi: *biznes* – savdo-sotiq, *korxonalar* – ishlab chiqarish joyi. Masalan (2.1.1-jadvalga qarang):

**Ingliz va o‘zbek tillarida tadbirkorlik sohasi leksik birliklarining  
chog‘ishtirma tahlili**

<b>Tuzilma turi</b>	<b>Ingliz tilida</b>	<b>O‘zbekcha muqobili</b>	<b>Izoh</b>
<b>Yasalgan</b>	Entrepreneurship	Tadbirkorlik	har ikkisi suffiks orqali yasaladi
<b>Qo‘shma birlik</b>	Risk management	Xavfni boshqarish	o‘zbek tilida fe‘l va ot birikmalari ustun
<b>O‘zlashgan</b>	Startup	Startap	o‘zbek tilida fonetik adaptatsiya orqali
<b>Oddiy birlik</b>	Fund	Mablag‘	har xil leksik ildizlar

Umuman olganda, til birliklarini o‘rganish til va uning inson jamiyati va idrokidagi roli haqidagi tushunchamizni rivojlantirishda juda muhimdir. Lingvistik birliklar tadbirkorlik sohasida, xususan, brending, marketing va aloqa kabi sohalarda birlamchi darajada rol o‘ynaydi. Tadbirkorlikda lingvistik birliklardan qanday foydalanishga bir nechta misollar:

**Brend nomlari** – tovar nomi kompaniya yoki mahsulotni ifodalovchi lingvistik birlikdir. Apple, Google va Nike kabi nomlar taniqli brendlarga aylandi, chunki ular osongina tanib olinadi va esda qolarli. Shuningdek, tadqiqotda tadbirkorlik sohasida faol qo‘llaniladigan quyidagi leksik birliklarni keltirib o‘tamiz:

*Tadbirkor* – bu atama daromad olish umidida moliyaviy tavakkalchiliklarni o‘z zimmasiga olib, biznes tashabbusini boshlagan va boshqaradigan shaxsni anglatadi.

*Startap* – bu odatda kichik bo‘lgan va innovatsion mahsulotlar yoki xizmatlarni ishlab chiqishga qaratilgan yangi tashkil etilgan biznes korxonasi.

*Venchur kapitalist* – bu mulk ulushi evaziga boshlang‘ich va boshlang‘ich kompaniyalarni moliyalashtiradigan investor.

*Investor* – bu kompaniyadagi kapital yoki mulk evaziga ko‘pincha shaxsiy mablag‘lar orqali dastlabki bosqichdagi biznesni moliyalashtiradigan shaxs.

*Pitch* – tadbirkor tomonidan potensial investorlar yoki mijozlarga o‘z g‘oyasini yoki mahsulotini sotish uchun qilinadigan taqdimot.

*Bootstrapping* – bu zukkolik, topqirlik va resurslarni ehtiyotkorlik bilan boshqarishga tayanib, minimal tashqi moliyalashtirish bilan biznesni boshlash va rivojlantirish usuli.

Tadbirkorlik faoliyati faqat moddiy ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmay, ko‘plab mavhum tushunchalar orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar korxonasi strategiyasi, boshqaruv texnologiyalari, inson resurslari va innovatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Quyida eng ko‘p qo‘llaniladigan mavhum atamalarni tahlil qildik:

*Innovatsiya:*

inglizcha ekvivalenti: *Innovation*;

bu so‘z ingliz tilidan o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri fonetik va semantik adaptatsiya yo‘li bilan o‘tgan; “innovatsiya” deganda yangilik, texnologik yutuq yoki tizimga kiritilgan ilg‘or o‘zgarish tushuniladi; rasmiy, ilmiy va iqtisodiy matnlarda

keng qoʻllaniladi; zamonaviy tadbirkorlik diskursining markaziy tushunchalaridan biridir.

*Raqobatbardoshlik:*

inglizcha ekvivalenti: *Competitiveness*;

murakkab soʻz boʻlib, “raqobat” + “bardosh” + “-lik” affiksidan yasalgan; subyekt yoki mahsulotning bozor sharoitlariga moslashish va oʻz ustunliklarini saqlab qolish salohiyati.

Tadbirkorlik sohasiga oid leksik birliklarning tuzilishi va tarkibiga qarab tasniflash mumkin. *Sodda leksik birliklar* bitta morfemadan iborat boʻlsa, *murakkab leksik birliklar* birikma va iboralar kabi bir nechta morfemalarning birikmasini oʻz ichiga oladi. Bu tasniflarni tushunish lingvistik tahlil uchun juda muhim, chunki u tilda maʼno yasalishining xilma-xil usullarini yoritadi. Masalan:

Oddiy leksik birliklar – erkin morfemalar: “hisob” (count) va “pul” (cash) kabi yolgʻiz va mustaqil maʼnoga ega soʻzlar.

Murakkab leksik birliklar – qoʻshma soʻzlar: ikki yoki undan ortiq oddiy leksik birliklarning qoʻshilishidan hosil boʻlgan soʻzlar, masalan, “chakana-savdo” yoki “economic growth”.

Frazalar (frazologik) leksik birliklar – barqaror soʻz birikmasi boʻlib, koʻpincha koʻchma maʼnoni bildiradi. Struktur jihatdan ularni ajratib boʻlmaydi, birga ishlatiladi. Misol uchun, *tavakkal qilmoq – xavf ostida ish boshlamoq, pul aylantirmoq – kapitalni foydali harakatga keltirmoq, bankrot boʻlmoq – moliyaviy jihatdan batamom yiqilmoq, bozorda oʻz oʻrnini topmoq – raqobatda barqaror boʻlish* kabilar.

Ingliz tilining leksik birliklari koʻpincha erkin morfemalardan iborat boʻlib, ushbu oʻrinda “gross” yoki “smes” kabi biznesga oid terminlar alohida maʼnolarga ega. Bundan tashqari, ingliz tilida bogʻlangan morfemalar prefikslar (“prepay”da “pre-”) va qoʻshimchalar (“interrelated”da “-inter”) orqali qoʻllaniladi.

Turkiy tillar guruhiga mansub oʻzbek tilida “aqcha” (pul) va “tanga” kabi erkin morfemalardan foydalanishda ingliz tili bilan oʻxshashliklarga ega. Oʻzbek tilidagi bogʻlovchi morfemalarga egalik qoʻshimchasi “-ning” (“kitobning” – kitobning) kabi affikslar kiradi.

Tadqiqot tahlillari natijasida toʻplangan leksik birliklar qoʻshimchalar qoʻshish orqali hosil qilingan atamalardir. Ular orasida grammatik taʼlimning quyidagi modellari aniqlandi:

1. “Sifat + Ot” atamani yaratishga yordam beradigan shakllanish modeli: *original qiymat – boshlangʻich qiymat; tannarx; iqtisodiy hayot – iqtisodiy xizmat muddati; moddiy taʼminot – materiallarni sotib olish; qimmat operatsiya – qimmat jarayon va boshq.*

2. “Ot + Ot” birliklarni ishlab chiqaradigan taʼlim modeli: *ishlab chiqarish birligining narxi; tender jarayoni – tender jarayoni; umr boʻyi xarajatlar – umr boʻyi xarajatlar; qoʻshimcha xarajatlar – ishlab chiqarish xarajatlari va boshq.*

Shuningdek, uchta elementdan tashkil topgan atamalar ham uchraydi va ular quyidagi modellarga asoslanadi:

1. Sifat + Ot + Ot:

– low maintenance cost – kam xizmat koʻrsatish harajati;

- initial construction cost – qurilishning dastlabki xarajatlari;
- lump sum contract – qat’iy belgilangan summali shartnoma.
- 2. O‘tgan zamondagi fe’l + Ot + Ot:
  - predetermined target cost – oldindan belgilangan maqsadli xarajatlar;
  - stipulated sum contract – oldindan belgilangan summali shartnoma.
- 3. Ot + Ot + Ot:
  - data quality check – ma’lumotlar sifatini nazorat qilish.
- 4. Hozirgi zamondagi fe’l + Ot + Ot:
  - saving construction times – qurilish vaqtini tejash.
- 3. Ot + Predlog + Ot:
  - cost of material – materiallar narxi;
  - cost of work – mehnat xarajatlari.

Tadbirkorlik – zamonaviy jamiyatning iqtisodiy tayanchlaridan biri bo‘lib, unga oid leksik birliklar va atamalar har bir tilning lug‘at boyligida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Har bir tilda tadbirkorlikka oid leksik birliklar nafaqat lug‘aviy, balki semantik jihatdan ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Ingliz va o‘zbek tillarini chogishtirish orqali biz tadbirkorlik tilining semantik qirralarini chuqurroq anglaymiz.

Tadbirkorlik tilida *sinonimiya*, *polisemiya* va *antonimiya* hodisalari tilning semantik boyligini ta’minlaydi. Bu hodisalar:

- sinonimiya orqali uslubiy tanlov imkonini beradi;
- polisemiya orqali kontekstga mos fleksibil ifoda yaratadi;
- antonimiya orqali tahlil va qarama-qarshilikni aniq ifodalashga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik sohasida qo‘llaniladigan leksik birliklar nafaqat semantik, balki stilistik jihatdan ham o‘ziga xos.

*Ingliz tilidagi tadbirkorlik leksikasining stilistik xususiyatlari.* Ingliz tilida tadbirkorlik terminlari qisqalik, aniqlik va dinamiklik bilan ajralib turadi. Ular quyidagi stilistik jihatlarga ega:

A. *Dinamiklik va metaforiklik.* *Elevator pitch* – investorni qisqa vaqt ichida ishonitirishga qaratilgan taqdimot.

B. *Jargonizmlar va qisqartmalar.* *IPO* (Initial Public Offering) – aksiyalarni ilk bor ommaga taqdim etish.

D. *Stilistik betaraflik.* AQSh matnlarida aniq va betaraf uslub ustun.

*O‘zbek tilidagi tadbirkorlik leksikasining stilistik xususiyatlari.* O‘zbek *tadbirkorlik* terminlari asosan tarjima, o‘zlashma yoki rus tili orqali kirib kelgan bo‘lib, bu ularning uslubiga ta’sir ko‘rsatadi:

A. *Ikki tillilik va stilistik gibridlik.* *Biznes reja, startup loyiha, sarmoya kiritish* – ko‘pincha aralashib ishlatiladi.

B. *Yangi so‘zlar va neologizmlar.* *Raqamli tadbirkorlik, innovatsion loyiha* – zamonaviy leksikaga mos keladi.

D. *Metaforik ifodalar va milliylik.* *Qo‘lga suv quygan tadbirkor* kabi iboralar uslubiy rang-baranglik yaratadi.

*Inglizcha-o‘zbekcha tarjimada stilistik muvofiqlik.* Tarjimada faqat semantik emas, balki stilistik adekvatlik ham muhim. Masalan (2.3.2-jadvalga qarang):

**Iboralarning so‘zma-so‘z va stilistik mos tarjimalari**

<b>Inglizcha ibora</b>	<b>So‘zma-so‘z tarjima</b>	<b>Stilistik jihatdan to‘g‘ri variant</b>
<i>Think outside the box</i>	Qutidan tashqarida o‘yla	O‘zgacha fikr yuritmoq / Yangicha yondashmoq
<i>Business angel</i>	Biznes farishtasi	Investor / homiy
<i>Pitch your idea</i>	Goyangni tashla	G‘oyangni taqdim et / loyihani tushuntir

Dissertatsiyaning “**Turli tizimli tillarda tadbirkorlik sohasidagi leksik birliklarning verballashuvi**” deb nomlangan uchinchi bobida soha leksik birliklarining lingvistik xususiyatlari, xususan, tadbirkorlik sohasidagi leksik birliklar, o‘zlashmalar va neologizmlarning semantik tahlili, tadbirkorlik sohasidagi neologizmlarning ilmiy matnlardagi tahlili, tadbirkorlik sohasidagi leksik birliklarning funksional tahlili, ingliz va o‘zbek tillarida tadbirkorlikka oid leksik birliklarning frazeologik birliklar sifatida tasniflanishi haqida so‘z boradi.

Tadbirkorlik sohasidagi leksik birliklar xususida to‘xtalishdan oldin, avvalo, leksik birlikning o‘ziga xos xususiyatlari hamda funksiyalari haqida fikr yuritsak. *Leksik birliklar* bu – ikki kishining aloqasini ta‘minlovchi barcha so‘zlardir. So‘zlarning har biri leksik birlikdir. Odatda ushbu birliklar 3 xil xususiyatga ega: rasmiy xususiyatlar, semantik xususiyatlar hamda fonologik xususiyatlar.

Leksik birliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning *rasmiy xususiyati* bo‘lib, ular tarkibidagi sintaktik tarkib va ushbu so‘zning o‘zgarishi turi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ko‘rsatadi. Masalan: bormoq, gapirmoq, bo‘lmoq (fe‘l), uy, stul, bino (ism) va h.k.z.

